

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA VAQT TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH**

Abibullayeva Xurshida Rashid qizi  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
Jismoniy madaniyat, sport va maktabgacha  
ta'lim fakulteti 3-bosqich talabasi  
xurshidaabubulayeva@gmail.com

**Annotatsiya**

Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda vaqt tasavvurlarni shakllantirish va kichik guruhda vaqt haqidagi tushunchalarini mustahkamlovchi mashg'ulotlar haqida yoritilgan.

This article covers the formation of time concepts in preschool children and activities that strengthen their understanding of time in a small group.

В статье рассматривается формирование представлений о времени у детей дошкольного возраста и мероприятия, закрепляющие их понимание времени в малой группе.

**Kalit so'zlar:** Bola, maktabgacha ta'lim, miqdor, vaqt haqida tushunchalar, elementar matematika, rivojlanish.

Child, preschool education, concept of quantity, time, elementary mathematics, development. Ребенок, дошкольное образование, понятие количества, время, элементарная математика, развитие.

Matematik tasavvurlarni shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishning asosiy formasi – mashg'ulotdir. Maktabga borish davriga kelib bolalar to'plam va son, shakl va kattalik haqida o'zaro bog'langan bilimlarni nisbatan ko'proq egallagan, fazoda va vaqtni orientastiya qila bilishni o'rgangan bo'lishlari zarur. Bularning hammasi bolalarning aqliy rivojlanishlariga va maktabda o'qishlarining muvoffaqiyatli kechishi imkonini beradi. Kichik guruhda bolalarning ertalab, kunduzi, kechqurun va kechasi vaqt oraliqlari haqidagi tasavvuri aniqlanadi. Sutka qismlarini kichkintoylar o'z faoliyatlari mazmunining o'zgarishiga hamda shu vaqt oralig'ida o'z atroflarida bo'lgan katta yoshli kishilar faoliyatiga qarab farq qiladilar. Aniq kundalik tartib, bolalarning uyqudan turish, ertalabki badantarbiya, nonushta, mashg'ulot vaqtlari qat'iy belgilab qo'yilganligi va sutkaning bo'laklari haqida tasavvur hosil qilish uchun real sharoitlar yaratadi.

Bolalarni tez-tez vaqt munosabatlarini aniqlashga ertaga, bugun, kecha, avval, keyin, oldin, bunga qadar, bundan keyin so'zlaridan foydalanishga qiziqtirib borish muhimdir. O'z tajribasidan, so'zlab berilganlar asosida hikoya tuzishda tarbiyachi voqealarning ketma-ket aniq berilishini kuzatib boradi, vaqt munosabatining mazmunini, mohiyatini tushuntiradi. Bu vaqt munosabatlari mantiqini, shuningdek, bolalar kuzatadigan yoki so'zlab beradigan voqealarni tushinishda muhim ahamiyatga egadir.

Pedagog vaqt bo'lagining nomini aytadi va bolalarning shu vaqtga mos bo'lgan faoliyat turlarini sanab chiqadi. «Hozir, ertalab biz badantarbiya qildik, yuvindik, endi esa nonushta qilamiz». Yoki «Biz allaqachon nonushta qilib bo'ldik,

shug'ullanib ham bo'ldik. Tez orada tushlik ovqatni yeymiz». Masalan, boladan

quyidagilar so'raladi: «Hozir, ertalab so'zlarini ishlatgan holda; Sen ertalab nima qilasan? Sen o'rningdan qachon turasan?» va shu kabilar. Kun davomida bolalar bilan birgalikda kunning turli bo'laklarida bolalar va kattalarning faoliyatini tasvirlaydigan rasmlar ko'rib chiqiladi. Rasmlar shunday bo'lishi

kerakki, ularning vaqtni mazkur bo'lagi uchun xarakterli belgilar aniq ko'rinib tursin. Tarbiyachi rasmda tasvirlangan bolalar nima ish qilayotganliklarini va bu harakat qaysi vaqtda bajarilayotganligini aytadi. U bolalarga savollar beradi: «Sen erta bilan nima qilding? Kunduzi-chi?». Yoki «Sen qachon o'ynaysan? Qaysi vaqtda sayr qilasan? Sen qachon uxlaysan?». Keyin bolalar, masalan, erta bilan, kunduzi yoki kechqurun kattalar yoki bolalar nima qilayotganliklari tasvirlangan rasmni tanlab oladilar.

Xulosa qilib aytganda, bolalar asta sekin erta, kunduzi, kechqurun, kechasi so'zlarining aniq mazmunini tushunib oladilar, ularga emotsional rang beradilar. Bolalar o'z nutqlarida ulardan foydalana boshlaydilar. Kichik guruh singari qolgan guruhlarda ham vaqtni bilish bolalarni asosan, kundalik hayotida shakllantirilib boriladi muhimi bu o'rgatishining puxta hissiyot asosida amalga oshirilishidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O.N.Imomkulova, E.M.Mardanov "Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma, Samarqand 2022-yil.
2. Bikbaeva N.U, Ibroximova I, Qosimova X.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish, Toshkent 1995-y
3. Kurmakeva R, A'zamova M, Normatova S, Yusupova M, Elementar matematika rejalari, Toshkent 1992-y
4. M.E.Jumayev Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent 2005-y
5. Shomarufov, A., Khudaybergenov, U., Abbosov, S., Khudayberdiev, K., Kasimov, S., & Abdugarimov, O. (2023). POSSIBILITIES OF PREDICTION OF THE EFFICIENCY OF VARICOCELECTOMY IN THE TREATMENT OF MALE INFERTILITY.
6. Khudaybergenov, U. A., Abbosov, S. A., & Ollayarov, A. A. (2024). EARLY DIAGNOSIS AND PREVENTION OF UROLITHIASIS IN THE ARAL SEA REGIONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(2), 115-119.
7. Atullaevich, A. F., Mekhammadkibirhanovich, B. M., Khalilovich, M. D., Atullaevich, K. U., & Samukdjanovich, K. S. (2018). Assessment of the specific characteristics of urethral stricture according to records of Medical Republican institution of Uzbekistan. *European science review*, (9-10-2), 207-211.
8. Olimjonovich, M. B. (2022). THE RELEVANCE OF THE DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY FOR LOCAL WASTEWATER TREATMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Harvard Educational and Scientific Review*, 2(3).
9. Усманов, И. А., Машрапов, Б. О., & Махмудова, Д. И. (2019). Проблемы охраны водных объектов от загрязнения бытовыми стоками в узбекистане. *Территория науки*, (3), 26-32.
10. Джалилова, Г. А., Максудова, Н. А., Машрапов, Б. О., & Искандарова, Ш. Т. (2019). ОХРАНА ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ УЗБЕКИСТАНА ОТ ЗАГРЯЗНЕНИЯ ХОЗЯЙСТВЕННО-БЫТОВЫМИ СТОКАМИ. In *Здоровый образ жизни и здоровьесберегающее мировоззрение как приоритет национальной политики* (pp. 371-374).
11. Усманов, И. А., Махмудова, Д. И., & Машрапов, Б. О. (2019). Охрана окружающей среды от загрязнения бытовыми стоками в Узбекистане. In *СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ* (pp. 15-21).

- 
12. Махмудова, Д. Э., Усманов, И. А., & Машрапов, Б. О. (2020). Экологическая безопасность земель в районах расположения ТПК в Узбекистане.
  13. Усманов, И. А., Ходжаева, Г. А., Мусаева, А. К., Махмудова, Д. И., & Машрапов, Б. О. (2020). Оценка качества воды Туполангского водохранилища с целью использования для водоснабжения. *Экология и водное хозяйство*, (1 (4)), 14-26.
  14. Асадова, Г. А. (2021). Актуальные проблемы бесплодия у женщин. In *Recent Scientific Investigation* (pp. 15-19).
  15. Асадова, Г. А. (2021). Обоснование комплекса мер по преодолению бесплодия у женщин с использованием методов вспомогательных репродуктивных технологий. *Интернаука*, (24-1), 44-45.
  16. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
  17. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
  18. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)